

Yuldasheva F.F

Ilmiy rahbar:

ÒzDJTU katta o'qituvchisi

Tòlanboyeva Muxlisa Baxtiyorjon qizi

Muallif:

ÒzDJTU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet til o'qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet til o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida so'z boradi. Bundan tashqari hozirgi davrda chet tilini órganishning qanchalik muhim ekanligini kòrsatadi.

Аннотация: В этой статье рассказывается о методологии изучения иностранного языка как науки история развития, современный метод, применяемый в методике изучения иностранного языка виды и особенности использования слова пойдет. Кроме того, это показывает, насколько важно в наше время изучать иностранный язык.

Annotation: This article discusses the methodology of foreign language teaching, the history of its development as a science, the types of modern methods used in foreign language teaching methods and their use. In addition, it shows how important it is to learn a foreign language nowadays.

Kalit so`zlar: metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, didaktika, madaniyatlararo muloqot.

Ключевые слова: методика, инновации, иностранный язык, коммуникация, кооперация

Key words: methodology, innovation, foreign language, communication, skills, competencies, didactics, intercultural communication.

Hozirgi davr ta'lrim taraqqiyoti yangi yo'naliish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni o'rgangan. Ilmiy yo'naliishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. “Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta'lim, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlananib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tatlbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni “Yoshlarni

qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili” deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarinining ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo'lmaydi. Oltmishinchı yillarning ikkinchi yarmida chet tilni ongli o'rganish o'quvchilar tomonidan nutq mazmunini tushunish hamda nutqning tarkibiy qismidagi til birliklarini anglab yetish ilmiy tarzda asoslab berildi. Ushbu ilmiy talqingga ko'ra, ayrim zaruriy qoidalar, ya'ni nazariyaning elem entlari amaliy m aqsadni ko'zlab bayon etiladi va tilni o'rganish jarayonini tezlashtiradi va o'quvchilarga osonlik tug'diradi. Onglilik prinsipi zaminida ishlab chiqilgan ongli-qiyosiy metod ta'kidlab o'tilgan uchala metodik yondashishda ham qator o'zgarishlar bilan saqlanib kelinadi. Hozirgi metodikada qiyoslash o'quvchilar tom onidan emas, balki ularning til tajribasini hisobga olgan holda darslik va dastur tuzuvchi metodistlar va o'qituvchilar tarafidan amalga oshiriladigan metodik tadbirdir. Darsda o'quvchi chet til hodisasini anglab oladi, biroq tillarni qiyoslash bilan band etilmaydi („Tilshunoslik asoslari“ga qarang) Chet til o'qitishning metodologik, ruhshunoslik va ta'limshunoslik asoslarini o'rganish, uning tilshunoslik asoslari ham mavjudligidan dalolat beradi. Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija, tasawurdagi oqibat ma'nosini anglatadi. Chet til mакtabda nima uchun o'qitiladi, degan savolga chet tilni amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o'rganadilar, deb javob qaytarish mumkin.

Ta'lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma topshiriq bo'lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi. Chet til ta'limi maqsadlari metodik adabiyotlarda keng muhokama qilinib keladi. O'tgan asr oltmishinchı yillarining ikkinchi yarmiga kelib, amaliy, ta'limiy va tarbiyaviy maqsad terminlari davr talabiga muvofiq sharhlab berildi. Saksoninchı yillarda uchala nomga qo'shimcha rivojlantiruvchi maqsad termini paydo botdi. Ushbu tushuncha-term inning chuqurtahlili sermahsul metodistlardan prof. Galina Vladimirovna Rogova tomonidan amalga oshirilgan. Shunday qilib, chet til to'rt maqsadda o'qitiladi. Birinchisi amaliy maqsad ustuvor. Chet til o'qitishning amaliy maqsadi. „Amaliy“ atalmish metodika termini hozirgacha muallimlar orasida birdan ortiq assotsiatsiya (flkran bog'lanish)ga sabab bo'lib, turli hajmdagi va shakldagi tushunchalar uyg'otmoqda. Amaliyatni „og'zaki nutq“ yoki „gapishtirish“ deb yuritish kabi xato fikrlar ham mavjud. Chet tilni amaliy egallahash, o'zgalar nutqini tushunish va o'z fikrini bayon etish degan to'g'ri umumiy ta'rif ham uchraydi. O'rta ta'lim kursida chet til amaliy tarzda o'rganilishining yakuniy maqsadi o'qib m a'lumot olish demakdir. Maktab, litsey va kollejni tugatuvchilar yakuniy maqsadga ko'ra o'qishdek nutq faoliyati turini chet tilda egallahadi. Oraliq maqsad esa turlicha bo'ladi.

Ta'lim bosqichi yoki alohida sinflarda nutq faoliyati turlaridan gapishtirish oraliq maqsadda o'rganilishi mumkin. Masalan, boshlang'ich davrda og'zaki nutqni maqsad maqomida o'rganadilar. Shu bilan birga, o'qish va yozuv ham

o‘rganiladi, biroq ularga vosita deb qaraladi. Endi terminlar ziddiyati - „maqsad“ va „vosita“ni ta’riflash ehtiyoji tug‘iladi. Nutq aloqa vositasi ekan, u (nutq faoliyati turlari majmuyi)ni o‘rganish ta’limning umumiy amaliy maqsadiga kiradi. Biror nutq faoliyati turi yakuniy yoki oraliq maqsad darajasida xususiy amaliy maqsadni ifodalaydi. Masalan, gapirish chet til o‘qitishning birinchi davrida xususiy oraliq, yetakchi amaliy maqsadda o‘rganiladi.

Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag’oyat

muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo’lmish tilni tabiiy muhitda ya’ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o‘rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko’p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o’quvchi va talabalar odatda uch tilni o‘rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o’taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinci til haqida so’z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo’shnilar tili sifatida qaraladi. Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G’arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o‘qilib kelinmoqda. Bu tillar ta’lim muassalarining o’quv rejalaridan o’rin olgan. Uchala tilni o‘qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun’iy muhitda o‘rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o‘rganish va o‘rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o’z navbatida, tegishli chet til o‘qitish texnologiyasini qo’llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o’zlashtirish orqali o’quvchi-talabaning to’plagan til tajribasi me’yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o‘rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o‘rganish va o‘rgatish ko’p jihatdan chet til o‘qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo’llanilishiga bog’liqdir. Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta’lim -tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o‘rgatish ilmi, muallim va o’quvchi faoliyatini o‘rganish metodikaning predmeti sanaladi. Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika-nimani o’rgatadi? O’qitishning mazmuni hisoblanadi. Metodika – nima? U ta’lim usullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi (grek-lotinchcha “metodos” “metodus”) so’zidan olingan bo’lib, ma’lum maqsadga eltuvchi yo’llar, usul ma’nosini anglatadi.

Chet til o‘rganish ko’p qirrali ta’limot bo’lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o’zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o‘rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalilaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet tili bilan ona tilini taqqoslab o‘rgatish samarali natija beradi.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Samarova, S. R., & Mirzayeva, M. M. “The problem of the formation of creative abilities of students in foreign psychology”//J. “Scientific-Methodical Journal”, 2020.-63-b.
- 2.Rahmanova.M.K.” Yoshlarning ma’naviy tarbiyasida qadimgi O’rta Sharqning o’rni”//J 2019.-84-b
- 3.I.B.Rahmonova, A.A.Mirolyubova “Metodika va metodologiya”//J. Sharq,2015.-179-b.